

O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIK: UCHINCHI RENESSANS, XALQARO TAJRIBA VA STRATEGIYA MASALALARI TAHLILI.

Xudayberdiyeva Mohichehra Alisher qizi

Buxoro Davlat Universiteti yurisprudensiya yo'naliishi 5/2-guruh.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12170846>

Annotatsiya. Hayot shiddat bilan o'zgarayotgan davrda jamiyat ham taraqqiy etar ekan, insonlar ham zamon bilan hamnafas bo'lishga harakat qilishadi. Bu ayollarga ham tegishlidir. Endilikda ayollar faqat uy-ishlari, bola tarbiyasi bilan shug'llanib, "yo oila, yo ish", - degan fikrlar gender tengligiga to'sqinlik qiladi. Shu jumladan gender tengligi nafaqat insonning asosiy huquqi, balki tinch, faravon va barqaror dunyo uchun zarur poydevordir.

So'nggi o'n yilliklarda gender tenglik masalalarida rivojlanish kuzatilmogda: Ko'proq qizlar maktabga boryapti, ko'proq ayollar parlamentda va rahbarlik lavozimlarida ishlar qilinmoqda, gender tenglikni oshirish uchun qonunlar isloq qilinmoqda.

Kalit so'zlar: Gender tenglik, qonun, narmativ- huquqiy hujjatlar, konstitutsiya, gender-huquqiy eksperitizasi instituti.

GENDER EQUALITY IN UZBEKISTAN: THE THIRD RENAISSANCE, ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE AND STRATEGIC ISSUES.

Abstract. In the era of rapid changes in life, society is also developing, and people try to keep up with the times. This also applies to women. Now women are only engaged in housework and raising children, and the thoughts of "either family or work" hinder gender equality. Including gender equality is not only a basic human right, but also a necessary foundation for a peaceful, prosperous and stable world.

Recent decades have seen progress in gender equality: More girls are attending school, more women are in parliament and in leadership positions, and laws are being reformed to improve gender equality.

Key words: Gender equality, law, normative-legal documents, constitution, institute of gender-legal expertise.

ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В УЗБЕКИСТАНЕ: ТРЕТИЙ РЕНЕССАНС, АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ.

Аннотация. В эпоху стремительных перемен в жизни общество также развивается, и люди стараются идти в ногу со временем. Это касается и женщин. Сейчас женщины занимаются только домашним хозяйством и воспитанием детей, а мысли «либо семья, либо работа» препятствуют гендерному равенству. Включение гендерного равенства является не только основным правом человека, но и необходимой основой мирного, процветающего и стабильного мира.

В последние десятилетия наблюдается прогресс в обеспечении гендерного равенства: все больше девочек посещают школу, больше женщин занимают должности в парламенте и на руководящих должностях, а законы реформируются для улучшения гендерного равенства.

Ключевые слова: Гендерное равенство, закон, нормативно-правовые документы, конституция, институт гендерно-правовой экспертизы.

KIRISH: Zamonaviy dunyoda gender tenglik siyosati

Bugungi kunda gender tenglik BMT, PI, boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilot va tuzilmalar, davlatlar siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Chunki bu inson qadri, erkinliklari va manfaatlarini kafolatlash, global miqyosda va davlatlar barqaror taraqqiyotini ta'minlash, tinchlik va xotirjamlikni o'rnatishning asosiy talablari hamda zaruriy shartlaridan hisoblanadi. Ushbu sohada bиргина BMT doirasida qator xalqaro shartnomalar, xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktlar, Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konventsija, Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi kabi o'nlab xalqaro hujjat qabul qilingan. Ular gender tenglik vaadolat tamoyillarini o'zida aks ettirishi, o'zaro bog'liqligi, bir-birini taqozo etishi va to'ldirishi hamda hayotiyligi bilan ajralib turadi. Bunda **Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konventsija** umume'tirof etilgan ayollar huquqlarini himoya qilish va gender tenglikiga erishish borasidagi "jahonning global konstitutsiyasi" sanaladi. erkaklar va xotin-qizlar huquqlarini to'la amalgalashni ta'minlaydigan, gender tenglikka asoslangan konstitutsiyani ishlab chiqish gender tengsizlikni bartaraf etishga yordam beradi hamda davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida ayollar huquq va manfaatlarini himoya qilishga huquqiy asos yaratadi. Parlamentlararo ittifoq tomonidan 2012 yilda qabul qilingan "**Genderga nisbatan sezuvchan parlamentlar uchun harakatlar rejasi**" ning hayotga tatbiq etilayotgani mamlakatlarda va global miqyosda gender siyosatni rivojlantirish va gender tenglikka erishishga xizmat qilmoqda. Shu o'rinda **BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish assambleyaning** "parlamentda ayollar ko'pchilikni tashkil etgan dunyodagi ilk davlat – Ruandada" o'tkazilgani, "Parlamentlararo ittifoqning gender tenglik va genderga nisbatan sezgir parlamentlarni yaratishdagi ahamiyati"ni yuqori baholaganini ta'kidlash joiz.

Uning so'zlariga ko'ra, "**ayollar jamiyat hayotida etakchi rollarni egallasa, ijroiya va qonun chiqaruvchi organlar ham ko'proq mas'uliyatli bo'ladi**". Hali-hanuz dunyoda biror mamlakat gender masalalarni to'la hal qilgan, deb bo'lmaydi. Shuning uchun PIning 145-assambleyasini asosiy hujjati bo'l mish **Kigali rezolyutsiyasida ta'kidlanganidek**, dunyo mamlakatlari darajasida va global miqyosda gender siyosatni rivojlantirish, "genderga nisbatanadolati va gender siyosatni qo'llab-quvvatlovchi jamiyatni shakllantirish", qarorlar qabul qilishda siyosiy institutlar tomonidan ayollar xizmat qiladigan tashkilotlarda xotin-qizlarning ovozlarini inobatga olishni ta'minlashda gender sezuvchan parlamentlar ishini yo'lga qo'yish va ularni baholashda quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, gender masalalarni inobatga olgan holda parlament tuzilmatuzilmalarini takomillashtirish. Tushunish, uni parlament faoliyatining asosiy tamoyillariga aylantirish va amaliyotda qo'llay bilish.

Jamiyat va davlat hayotida gender tenglikni ta'minlash strategiyasini rivojlantirish, gender masalalarni inobatga oluvchi byudjetni shakllantirish va gender auditini amalgalash oshirish.

Jamiyatdagi gender tenglikka nisbatan munosabatni doimiy monitoring qilish, o'rganib borish, tegishli tadqiqotlarni amalgalash oshirish va tavsiyalar tayyorlash. Gender tenglik siyosatining hayotga tatbiq etilish holati va xotin-qizlarning davlat boshqaruvi organlaridagi vakilligi va ishtirokini ta'minlash alohida ahamiyatga egaligini ko'rsatmoqda. Mamlakatimizni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi doirasida

o‘tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. Shuningdek, inson huquqlarini ta’minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. So‘nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari yaratildi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirdorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilangan.

ASOSIY QISM: Global gender tenglik va Konstitutsiya

Bugungi kunda gender tenglikni ta’minlashda tegishli masalalarining dunyo konstitutsiyalarida aks ettirilishi, “**gender masalalarga sezgir konstitutsiyalar**” qabul qilinishi tendentsiyalari namoyon bo‘lmoqda. Albatta, O‘zbekiston ham ushbu yo‘nalishdan jahon hamjamiyati bilan birga qadam tashlamoqda. Sohaga oid dunyo konstitutsionalizmini o‘rganish xalqaro majburiyatlarga muvofiq xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi tenglik tamoyilini amalga oshirish yo‘lidagi birinchi qadam sifatida gender tenglik tamoyilini konstitutsiyalarga kiritilayotganidan dalolat beradi. Bunda **gender nuqtai nazardan konstitutsiyaviy islohotlarning asosiy vazifasi, xususan, quyidagilarni tashkil qiladi.**

Birinchidan, Konstitutsiyaga umume’tirof etilgan printsip va normalarni kiritish. Bugungi kunda dunyo konstitutsiyalarining **98 foizi** tenglik va kamsitilmaslik, **94 foizi** zo’ravonlikdan himoya qilish, **86 foizi** xotin-qizlarning ta’lim olishi, **85 foizi** ijtimoiy xizmatlardan foydalanish kafolati, **44 foizi** diskriminatsiyaga qarshi choralar va **12 foizi** xotin-qizlar huquqlari bo‘yicha alohida qoidalarni o‘z ichiga oladi; **ikkinchidan**, barcha jabhada xotin-qizlarning konstitutsiyaviy nazorat va islohotlar jarayonlarida to‘liq va teng ishtirok etishini ta’minlash lozim; **uchinchidan**, konstitutsiyani yangilashda jahon davlatlarining gender omillarni, ayniqsa, “kamsituvchi konstitutsiyaviy qoidalarga” barham berish borasidagi ijobiy tajribasini inobatga olish kerak.

Shu bilan birga, xotin-qizlar huquqlariga oid konstitutsiyaviy normalar tenglik va kamsitilmaslikning umumiyligi tamoyillari bilangina chegaralanmay, ayollarning o‘ziga xos huquq va erkinliklarini ham qamrab olishi lozim. Ular ta’lim, sog’liqni saqlash, fuqarolik, saylanadigan va tayinlanadigan organlarda ishtirok etish kabi sohalarni ham nazarda tutishi zarur. Bunda konstitutsiyaviy islohotlar, xususan, quyidagi vazifalarni hal etishni ko‘zlaydi.

Erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglikni ta’minlash uchun vaqtinchalik maxsus choralarni hayotga tatbiq etish. Xususan, **Gretsiya Konstitutsiyasining** 116-moddasida “erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglikni ta’minlashga qaratilgan ijobiy chora-tadbirlarni qabul qilish jinsga ko‘ra kamsitish hisoblanmaydi. Davlat real hayotdagi tengsizliklarni, xususan, ayollar zarariga barham berish choralarini ko‘radi”, deb belgilab qo‘yilgan. Bundan tashqari, 22-moddaning 1-bandida “Barcha ishchilar, jinsi yoki boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar, teng qiymatdagi ish uchun teng haq olish huquqiga ega”, deb ko‘rsatilgan bo‘lsa, o’sha 116-moddada “Vazirlikning normativ xarakterdagи qarorlari, shuningdek, 22-moddaning 1-bandi qoidalari zid

bo'lgan ish haqini belgilovchi jamoa shartnomalari yoki hakamlik sudlarining qarorlari ushbu Konstitutsiya kuchga kirgan kundan boshlab uch yildan kechiktirmay almashtirilgunga qadar o'z kuchida qoladi”, deyilgan. **Avstriya Konstitutsiyasining** 7-moddasida bunday qayd etilgan: “Federatsiya, shtatlar va munitsipalitetlar erkaklar va ayollarning de-fakto tengligini qo'llab-quvvatlaydi. Ayollar va erkaklarning de-fakto tengligini ta'minlashga, xususan, real hayotdagi tengsizliklarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarga ruxsat etiladi”.

Gender masalalarni inobatga olgan byudjetlar ishlab chiqilishini ta'minlash.

Avstriya Konstitutsiyasining 13-moddasida: “Federatsiya, shtatlar va munitsipalitetlar byudjet tuzishda ayollar va erkaklarning teng maqomini ta'minlashga intiladilar”, deya belgilab qo'yilgan. Qonuniylik, demokratiya, ochiqlik va oshkoraliq gender tenglikni ta'minlashning asosiy tamoyillaridir, gender strategiyasi doirasida gender tenglik tushunchasi jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta'lim, ilm-fan, sport munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarining tengligini anglatadi. So'nggi yillarda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida O'zbekiston Respublikasida jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish masalalari bo'yicha mustahkam huquqiy asoslar yaratildi. Jumladan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 300 nafardan ortiq, shu jumladan vazirlik va idoralarda 45 nafar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasida 39 nafar, mahalliy davlat hokimiyati organlarida 207 nafar ayol rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarining 32 foizi, Senati a'zolarining hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, mahalliy Kengashlar deputatlarining qariyb 25 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Gender tenglikni ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, parlament yuqori palatasida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi, Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat-kengashlari, Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tashkil etildi. O'zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentda xotin-qizlar soni Birlashgan Millatlar Tashkilotining tavsiyalariga mos darajaga yetdi. Mamlakatimiz parlamenti xotin-qizlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta milliy parlamentlar o'rtasida 37-o'ringa ko'tarildi.

Shuningdek, O'zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi va O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi a'zolarining 49 foizini, O'zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi a'zolarining 46 foizini, O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi va O'zbekiston Ekologik partiya a'zolarining 41 foizini xotin-qizlar tashkil qiladi. Islohotlarning barcha bosqichlarida O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat keng qamrovli masalalarni o'z ichiga oladi. Aholi daromadlarini tizimli ravishda oshirib borish, bandlik va mehnat munosabatlarini shakllantirish, aholining ayrim toifalarini, shu jumladan tadbirkor va fermer xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash borasida qo'shimcha kafolatlar berildi.

Xususan, xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish maqsadida imtiyozli kreditlar ajratish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari mikrokredit bazasi mijozlarining 30 foizidan ortig'ini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Tijorat banklari mablag'lari hisobidan 172 mingdan ortiq xotin-qizlarga 4,9 trillion so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Buning natijasida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yan xotin-qizlar soni bir yilda 45 ming nafarga ko'paydi. 2019-yildan boshlab aholining ish bilan ta'minlanishi va yangi ish o'rnlari yaratilishi davlat buyurtmasi asosida amalga oshirish tizimi yo'lga qo'yildi.

O'zini o'zi band qilgan fuqarolarga vaqtincha mehnat guvohnomalarini berish va ularning ish stajini qayd etish tartibi joriy etildi. Natijada norasmiy sektorda band bo'lган xotin-qizlarning ulushi 27 foizga yetdi. Respublikaning chekka hududlarini rivojlantirish, qishloqlarni obodonlashtirish, qishloqlarda yashovchi xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlash orqali kambag'allikni qisqartirishga ham alohida e'tibor qaratildi. Qishloq xo'jaligining turli sohalarida 1,5 milliondan ortiq xotin-qizlar mehnat qiladi. Tadbirkorlik subyektlarining 20 foiziga, shu jumladan fermer xo'jaliklarining 7,3 foiziga ayollar rahbarlik qiladi. 2017-yildan boshlab sog'liqni saqlash tizimida tub o'zgarishlar amalga oshirilib, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, fuqarolarni sog'lom farzandlar tug'ilishiga ongli va mas'uliyatli munosabatda bo'lishga o'rgatish, xotin-qizlar va erkaklarning reproduktiv huquqlarini amalga oshirishda teng imkoniyatlarni yaratish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Gender tenglikni rag'batlantirish va unga erishish uchun ommaviy axborot vositalari faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ijtimoiy va siyosiy faol xotin-qizlar imidjini aks ettiruvchi, xotin-qizlar va erkaklar uchun yaratilgan imkoniyatlarni yorituvchi radioeshittirishlar va teleko'rsatuvlar soni ko'paydi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida mamlakatimizda O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lган davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalari qabul qilingan. Mazkur vazifalar doirasida gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hamda boshqa sohalarda zarur choralar belgilab olingan. Barqaror rivojlantirish sohasidagi milliy maqsadlar va vazifalarning amalga oshirilishini nazorat qilish bo'yicha Parlament komissiyasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Mehnat migratsiyasiga doir masalalarni tartibga solish O'zbekiston uchun alohida ahamiyat kasb etdi. Jumladan, 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Xalqaro Migratsiya Tashkilotiga a'zo bo'ldi. Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq hamda manfaatlarini himoya qilish maqsadida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzurida maxsus jamg'arma tashkil etildi. Shu bilan birga, xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishidagi ishtirokini kengaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda jiddiy e'tibor talab etadigan masalalar mavjud. Jumladan, xotin-qizlarning erkaklar bilan teng darajada davlat va jamiyat boshqaruviga oid dolzarb masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki yetarlicha ta'minlanmayapti, ularni hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir ishlarga jalb qilish holati sustligicha qolmoqda. Xotin-qizlarning davlat hokimiyyati va boshqaruvidagi faoliyati to'g'risida jamiyatdagi salbiy qarashlar esa ularning siyosiy jarayonlarda o'z g'oyalarini ilgari surishiga to'sqinlik qilmoqda. Aksariyat hollarda xotin-qizlarga iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lмаган va haq to'lanmaydigan uy xo'jaligi ishlari yuklatilmoxda. Ta'limda xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida

keskin tafovutlar kuzatitilib, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim o'qituvchilarining 70 foizdan ortig'ini ayollar tashkil etmoqda. Ta'limning pedagogika va gumanitar fanlar (filologiya, pedagogika, psixologiya, madaniyat va san'at) yo'nalishlarida tahsil olayotgan xotin-qizlar ulushi 68 foizni tashkil etsa, muhandis-texnik (axborot texnologiyalari, energetika, injeneriya) va huquqshunoslik sohalarida ularning ulushi hamon kamligicha (24 foiz) qolmoqda. Respublika hududlarida, ayniqsa qishloq joylarida sog'liqni saqlash xizmatlari sifatining pastligi, xususiy tibbiy xizmatlarning rivojlanmaganligi, er va xotin o'rtasida oilani rejalashtirish bo'yicha tibbiy madaniyatning yetarli emasligi onalar va go'daklar o'limlarining saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda. Tashqi va ichki migratsiyaning gender jihatlari, uning xotin-qizlar hamda erkaklarga, ularning oilasi, farzandlariga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha olib borilmayapti, mazkur sohada aholi uchun yaratilgan imkoniyatlar, xotin-qizlarning huquqlari, mehnat migrantlarini himoya qilish mexanizmlari to'g'risida targ'ibot-tashviqot ishlari lozim darajada tashkil qilinmayapti. Qolaversa, media mahsulotlarining gender ekspertizasi o'tkazilmayapti, ommaviy axborot vositalarida oila va jamiyatdagi xotin-qizlar va erkaklarning rolini aks ettirishda an'anaviy qarashlar mavjud, bosma va elektron ommaviy axborot vositalarida xotin-qizlarning jamiyat rivojiga qo'shayotgan hissasi yetarli darajada yoritilmayapti.

Yuqorida kabi muammo va kamchiliklarning saqlanib qolinishi nafaqat inson huquq va erkinliklarini to'laqonli ta'minlash imkoniyatini cheklabgina qolmasdan, mamlakatning xalqaro maydondag'i imidjiga, uning xalqaro reyting va indekslardagi o'miga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Gender strategiyasining asosiy maqsadi — irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta'minlashdan iborat. Gender strategiyasining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi.

Xotin-qizlarning yer va mulkka nisbatan egalik qilish imkoniyatlarini kengaytirish, jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta'lim, ilm-fan hamda sport munosabatlarda xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ishtiroy etishlarini qo'llab-quvvatlash, qaror qabul qilishda ularning yetakchilik qilishlari uchun teng imkoniyatlarni yaratish, xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish, ularning jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq salbiy qarashlarni o'zgartirish. Aholi bandligi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun kafolatlangan teng huquq hamda imkoniyatlarni, shuningdek, munosib ish o'rinlarini yaratish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, xotin-qizlarning tijorat banklaridan kredit olishga bo'lган imkoniyatlarini kengaytirish, xotin-qizlar va erkaklarni butun umri davomida o'qishga bo'lган imkoniyatlarini rag'batlantirish, ularning oilani rejalashtirish borasidagi tibbiy madaniyatini oshirish va reproduktiv salomatligini mustahkamlash, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini yuksaltirishga qaratilgan. Saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

Yurtimizda o'rta va o'rta maxsus ma'lumotga ega xotin-qizlar va erkaklar uchun mehnat bozorida munosib ish o'rinlarining hamda kafolatlangan mehnat sharoitlarining yaratilishimiz kerak, chunki o'zini o'zi band qilgan xotin-qizlar va erkaklarni qo'llab-quvvatlash, bunday shaxslar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat turlarini kengaytirish, aholining o'zini o'zi band qilishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirishimiz kerak deb o'yayman. Qishloq joylarida xotin-qizlar uchun munosib ish o'rinlarini yaratish, bir turdag'i mehnat uchun xotin-qizlar va

erkaklarning mehnatiga teng haq to‘lash, ishsiz xotin-qizlarni o‘zini o‘zi band qilish orqali bandligini ta’minlash yuzasidan zarur choralar ko‘rsak maqsadga muvofiqdir.

Xotin-qizlar va erkaklarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olishda davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institatlari o‘rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini mustahkamlashimiz, tazyiq va zo‘ravonlik holati qayd etilgan oilalar, ish joylari, jazoni ijro etish muassasalari va boshqa obyektlarning hisobini yuritish, shuningdek tazyiq va zo‘ravonlik sodir etishga moyil bo‘lgan yoki uni sodir etgan g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslarni aniqlash, ularga profilaktik ta’sir ko‘rsatish hamda xulq-atvorini o‘zgartirish tizimini va choralarini takomillashtirish, Shu o‘rinda mamlakatimizda oilaviy munosabatlar hamda bolalar tarbiyasi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Erta nikoh, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh, erta tug‘ruq, oilaviy ajralishlarning yuzaga kelish sabablari hamda shart-sharoitlarini tahlil qilish, bu borada ilmiy, amaliy hamda fundamental tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, hamda asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar, ijobiy urf-odatlar va an‘analar asosida oilalarni mustahkamlash, oilaviy ajralishlarning oldini olishda davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institatlari o‘rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini mustahkamlashda, ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirishda xotin-qizlar bilan bir qatorda erkaklarning mas’uliyati hamda rolini oshirishimiz kerak. Shu o‘rinda oilalarni yoshlarning axloqiy negizlarini buzishga olib keladigan, oilaviy qadriyatlarni inkor etadigan, axloqsizlikni targ‘ib qiladigan, shuningdek ota-onasiga va oilaning boshqa a’zolariga nisbatan hurmatsizlik munosabatini shakllantiradigan, jinslardan birining ustunligi g‘oyasiga asoslangan noto‘g‘ri tasavvurlardan himoya qilish.

Respublika va hududlar kesimida genderga oid vaziyatni tahlil qilish hamda uning monitoringini yuritish maqsadida xotin-qizlar va erkaklarning norasmiy mehnat bozori sektoridagi, shuningdek hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ishtiroti, ularning davlat tomonidan kafolatlangan imkoniyatlardan foydalanish holati yuzasidan statistik ma’lumotlarni tizimli yuritishimiz hamda jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning holatini aks ettiradigan statistik axborotni yig‘ishni, unga ishlov berishni, uni to‘plashni, saqlashni, tahlil va e’lon qilishga oid chora-tadbirlarni qo‘llab-quvvatlashimiz darkordir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Biz bu yo‘nalishdagi vazifalarni bajaradigan bo‘lsak, albata o‘ylagan natijalarimizni qo‘lga kiritamiz. Yuqori va quyi tizimdagи davlat organlarining rahbarlik lavozimlariga xotin-qizlarni tayinlash amaliyoti kengaytirish, siyosiy partiyalarni rag‘batlantirish orqali xotin-qizlar saylov jarayonlariga keng jalb qilish, aholi bandligi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun kafolatlangan teng huquq hamda imkoniyatlarni, shuningdek ular uchun munosib ish o‘rinlari yaratiladi, ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta’milangan, ayniqsa qishloq joylardagi oilalar ish bilan ta’minlanadi, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarning samaradorligi oshiriladi, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar ko‘lami kengayadi. Xotin-qizlar va erkaklarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish tizimi takomillashtiriladi, jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan shakllangan salbiy qarashlar darajasini kamaytirish, azaldan ma’naviyat, madaniyat beshigi bo‘lgan Ko‘hna

Sharq o‘z bag‘rida ming-minglab daholarni, donishmand, allomalarni yetishtirdi. Bu zamin tuprog‘ida ne-ne kashfiyotlar tug‘ilmadi deysiz.

Bu ajib maskan quchog‘ida qanchadan-qancha asrlarga tatigulik shoh asarlar yaratildi, mangulikka yuz tutdi. Insoniyat uchun, bani-bashar uchun ruhiy tiganmas ozuqa manbaini o‘tadi. Albatta, har qaysi davrda ma‘rifatli jamiyat har qanday mafkuraviy jamiyatdan ustun bo‘lib kelgan.

Dunyoning ko‘plab rivojlangan davlatlari qatorida O‘zbekiston Respublikasida ham ayollar va bolalarga bo‘lgan e‘tibor - ularning jamiyatdagi va davlat boshqaruvidagi o‘rnini mustahkamlashning davlat siyosati darajasigacha ko‘tarilayotganida namoyon bo‘lmoqda. Har qanday jamiyatning rivojlanishida muhim ro‘l kasb etadigan tarbiya masalasi oiladan shakllanadi.

Oila esa o‘z navbatida, undagi er-hotin, ota-onal bilan farzand o‘rtasidagi munosabatlarning maskanidir. Shunday ekan bir –biriga bog‘liq bo‘lgan munosabatlar zamirida jamiyatni tashkil qiluvchi shaxs shakllanadi. Tarbiya va ayolning oiladagi o‘rni masalasida ko‘plab uzundan uzoq isbotini allaqachon amalda k‘orasatayotgan misollarni kelrirish mumkin. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining gender tengligi bo‘yicha olib borayotgan siyosati, davlat boshqaruvida xotin-qizlarga ko‘plab imkoniyat eshiklarini ochadi.

Gender strategiyasi doirasida gender tenglik tushunchasi jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta’lim, ilm-fan, sport munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarining tengligini anglatadi.

REFERENCES

1. ”2030-Yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash” haqidagi O‘zbekiston Respublikasi oliy majlisi senatining qarori.
2. ”Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari” to‘g’risidagi O‘zbekiston Respublikasining qonuni.
3. 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining 2021-2022-yildagi ijrosi hamda uni amalga oshirish bo‘yicha 2023-yilga mo’ljallangan chora -tadbirlarni tasdiqlash” haqidagi O‘zbekiston Respublikasi oliy majlisi senatining qarori.